XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-fevral

Asosiy tarkib

Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Dastlabki ma’lumotlar

2021- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 111,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **9,2** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **129,5** mlrd. so`mni (**48,2** % ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **981,9** mlrd. so‘mni (**0,8** % ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **199,7** mlrd. so‘mni (**1,7** % ga oshdi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda

O‘sish (o‘zgarish) sur’atlari, foizda

Uyushmagan savdo, mlrd. so‘m

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so‘m

UMUMIY MA’LUMOT

2021- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 111,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **90,8** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida Urganch va Xiva shahri, Bog‘ot, Qo‘sh ko ‘pir, Urganch, Xonqa, Shovot tumanlarida kamayish sur’atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **88,4 %** va yirik korxonalar hissasiga **11,6 %** to‘g‘ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **31,8 %** ulush bilan **353,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

ENG QUYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Yangibozor tumanida **2,2 %** ulush bilan **24,4** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-fevral

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ri keldi. Mazkur hajm 2021- yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko‘ra, **981,9** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **0,8** % ga o‘sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **88,4 %** ni tashkil etdi.

Bu ko‘rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal’a (99,8 %), Bog‘ot (98,8 %), Yangibozor (98,4 %), Gurlan (98,1 %) va Yangiariq (97,1 %) tumanlarida yuqori bo‘lgan.

XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-fevral

2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida quyidagi hududlarda kamayish sur’atlari kuzatilib, jumladan, Urganch shahrida (77,4 %), Xonqa tumani (94,1 %), Urganch tumani (95,0 %), Shovot tumani (97,8 %), Xiva shahri (97,9 %), Bog‘ot tumani (98,6 %), Qo‘shko‘pir tumani (99,4%) ni tashkil qildi.

Chakana savdo aylanmasining o‘sish sur’atlari, foizda

	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	**1 111 398,4**	**90,8**	**129 453,1**	**51,8**	**981 945,3**	**100,8**
shaharlar:						
Urganch	353 114,6	77,4	102 823,8	49,2	250 290,8	101,2
Xiva	45 311,2	97,9	3 664,4	85,7	41 646,8	99,1
tumanlar:						
Bog‘ot	61 202,6	98,6	747,2	105,3	60 455,4	98,5
Gurlan	87 020,0	101,4	1 645,4	110,4	85 374,6	101,2
Qo‘shko‘pir	49 659,6	99,4	3 583,6	4,4 m.	46 076,0	93,7
Urganch	120 575,6	95,0	4 044,4	33,2	116 531,2	101,6
Hazorasp	114 697,4	101,8	3 447,8	87,5	111 249,6	102,4
Tuproqqal’a	27 506,4	100,2	59,6	-	27 446,7	100,0
Xonqa	71 861,3	94,1	4 055,3	36,1	67 806,0	104,1
Xiva	24 807,1	101,8	784,6	3,5 m.	24 022,4	99,5
Shovot	83 848,8	97,8	2 824,2	59,7	81 024,6	100,1
Yangiariq	47 366,7	102,2	1 393,2	114,3	45 973,5	101,8
Yangibozor	24 427,3	101,8	379,5	2,4 m.	24 047,8	100,9

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **48,2 %** ga kamaydi va **129,5** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **11,6 %** ulushiga to‘g‘ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, **981,9** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **0,8** % ga o sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **88,4** % ni tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)

Tahliliy natijalarga ko‘ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Tuproqqal’a (99,8 %), Bog‘ot (98,8 %), Yangibozor (98,4 %) va Gurlan (98,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 11,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (29,1 %), Xiva shahri (8,1 %), Qo‘shko‘pir tumani (7,2 %) va Xonqa tumani (5,6 %) da kuzatildi.

XORAZM VILOYATI BO‘YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

2021- yil yanvar-fevral oylari holatiga ko‘ra, o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **591,2** ming so‘m (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **10,6** % ga kamaydi) ni tashkil qildi. Yuqori o‘sish sur’ati Yangiariq (100,7%), Yangibozor (100,4 %), Hazorasp (100,2 %) tumanlarida qayd etildi. Urganch shahar (76,5 %), Urganch (93,3 %), Xonqa (92,7 %) tumanlarida eng quyi ko‘rsatkichlar kuzatildi.

Ushbu ko‘rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (2 447,1 ming so‘m), Urganch (604,7 ming so‘m) va Hazorasp (590,9 ming so‘m) tumanlari

	Hajm, ming so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	**591,2**	**89,4**
shaharlar:		
Urganch	2447,1	76,5
Xiva	488,3	96,5
tumanlar:		
Bog‘ot	370,5	96,8
Gurlan	585,6	100,0
Qo‘shko‘pir	287,5	97,9
Urganch	604,7	93,3
Hazorasp	590,9	100,2
Tuproqqal’a	496,5	98,7
Xonqa	384,5	92,7
Xiva	169,8	100,1
Shovot	491,8	96,3
Yangiariq	407,3	100,7
Yangibozor	279,2	100,4

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

2021- yilning yanvar-fevral oyilarda uyushmagan savdo tovar aylanmasi **199,7** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **1,7** % ga o‘sdi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma’lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo‘jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **90,9** mlrd. so‘mni (o‘zgarish sur’ati 102,6 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **108,9** mlrd. so‘mni (o‘zgarish sur’ati 101,0 %) tashkil etdi.

Asosiy tarkib, foizda

O‘sish (o‘zgarish) **sur’atlari,** foizda

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Eng yuqori ulushga ega hududlar

XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-fevral

2021- yilning yanvar-fevral oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra , jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **90,9** mlrd. so‘mni, chorva (parranda) bozorlarida **108,8** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	199,7	101,7	90,9	102,6	108,8	101,0
shaharlar:						
Urganch	34,1	92,1	22,5	176,4	11,6	47,9
Xiva	3,3	99,5	3,3	99,5	-	-
tumanlar:						
Bog‘ot	30,1	97,8	3,2	29,9	26,9	133,7
Gurlan	19,8	109,0	4,0	41,8	15,8	182,8
Qo‘shko‘pir	12,5	82,8	7,9	79,0	4,6	90,4
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	25,8	119,2	14,7	132,1	11,1	105,6
Tuproqqal’a	5,5	110,5	5,0	130,2	0,5	41,9
Xonqa	18,8	114,7	13,4	111,6	5,4	123,3
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	41,7	100,0	13,2	119,7	28,5	92,9
Yangiariq	5,5	114,8	2,6	94,7	2,9	142,5
Yangibozor	2,7	103,8	1,2	70,7	1,5	168,2

** Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo‘shmagan holatda*
** Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari*

XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-fevral

1,1 mlrd. so‘m

Tuzlamalar

44,1 mlrd. so‘m

Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) **11** ta hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **90,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**44,1** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

0,7 mlrd. so‘m

Ziravorlar

2,3 mlrd. so‘m

Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari
(yong‘oq, bodom, pista va boshqalarni qo‘shgan holda)

7,7 mlrd. so‘m

Tovuq go‘shti

13,4 mlrd. so‘m

Non va non mahsulotlari

3,0 mlrd. so‘m

Sut va sut mahsulotlari

6,8 mlrd. so‘m

Tuxum

8,7 mlrd. so‘m

Don mahsulotlari
(mosh, loviya, no‘xat, guruch va boshqalar)

2,5 mlrd. so‘m

Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-hashaklar

0,7 mlrd. so‘m

Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi)

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning **10** ta (Xiva shahri, Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarda joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **108,8** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **101,1** mlrd. so‘mni, qo‘y va echkilar **6,9** mlrd. so‘mni, parrandalar **0,8** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to‘liq tarkibi quyidagi ko‘rsatkichda o‘z aksini topgan:

2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	**54,1** mlrd. so‘m
1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	**20,8** mlrd. so‘m
1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	**26,2** mlrd. so‘m
Qo‘ylar	**5,6 mlrd. so‘m**
Echkilar	**1,3** mlrd. so‘m
Otlar	**0,0** mlrd. so‘m
Tovuqlar	**0,3** mlrd. so‘m
Kurka, o‘rdak, g‘ozlar	**0,5** mlrd. so‘m

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

2021- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,5 %** ni tashkil etib, **16,6** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **3,4 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **87,3 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining o‘sish sur’atlari, foizda

	Jami, mln. so‘m	**2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan,** foizda	**Yirik korxonalar,** mln. so‘m	**2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan,** foizda	**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik,** mln. so‘m	**2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan,** foizda
Xorazm viloyati	16 552,9	103,4	2 109,4	298,5	14 443,5	94,4
shaharlar:						
Urganch	7 562,0	98,2	741,4	131,9	6 820,5	95,6
Xiva	839,8	93,8	-	-	839,8	93,8
tumanlar:						
Bog‘ot	525,4	95,2	-	-	525,4	95,2
Gurlan	396,5	92,6	-	-	396,5	92,6
Qo‘shko‘pir	256,0	93,7	-	-	256,0	93,7
Urganch	2 828,1	94,2	136,2	94,4	2 691,9	94,2
Hazorasp	711,1	89,5	-	-	711,1	89,5
Tuproqqal’a	280,3	90,9	-	-	280,3	90,9
Xonqa	486,3	90,2	-	-	486,3	90,2
Xiva	431,2	94,1	-	-	431,2	94,1
Shovot	1 785,9	3,1 m.	1 231,8	-	554,2	95,5
Yangiariq	184,4	99,3	-	-	184,4	99,3
Yangibozor	266,1	89,4	-	-	266,1	89,4

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda

Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

2021- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **259,9** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **1,7** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **53,3** mlrd. so‘mni (**3,8** % ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **206,5** mlrd. so‘mni (**1,1** % ga kamayish) tashkil etdi.

O‘sish (o‘zgarish) **sur’atlari,** foizda

Yirik korxona

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo: **259,9 mlrd. so‘m, 100 %**

Yirik korxonalar: **53,3 mlrd. so‘m,** 20,5 %

Mikrofirma va kichik korxonalar: **206,5 mlrd. so‘m,** 79,5 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘sish sur’atlariga ega yirik korxonalar Yangiariq tumani (9,3 m.), Urganch shahri (169,9%.) va Hazorasp tumani (145,5%) da kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o‘zgarish sur’atlari Xiva (2,0 m.) tumanida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o‘sish sur’atlari, foizda

	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	**259 866,8**	**98,3**	**53 333,8**	**96,2**	**206 533,0**	**98,9**
shaharlar:						
Urganch	126 876,5	99,7	35 450,0	169,9	91 426,5	85,9
Xiva	9 905,7	95,4	124,2	94,3	9 781,5	95,4
tumanlar:						
Bog‘ot	4 766,6	86,3	2,0	66,7	4 764,6	86,3
Gurlan	4 941,7	91,3	1,9	4,3	4 939,8	92,0
Qo‘shko‘pir	2 029,9	93,1	2,3	20,0	2 027,5	93,4
Urganch	47 212,4	73,0	16 751,4	50,1	30 460,9	97,5
Hazorasp	2 494,1	91,9	11,5	145,5	2 482,6	91,7
Tuproqqal’a	2 203,7	94,4	5,4	-	2 198,3	94,1
Xonqa	10 499,8	88,0	954,0	103,0	9 545,8	86,7
Xiva	36 256,2	2,0 m.	4,2	14,7	36 252,0	2,0 m.
Shovot	4 330,1	89,5	5,9	-	4 324,2	89,4
Yangiariq	3 170,9	91,2	20,4	9,3 m.	3 150,6	90,7
Yangibozor	5 179,2	90,5	0,5	7,0	5 178,7	90,6

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko‘ra, **206,5** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **1,1** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **79,5 %** ni tashkil etdi.

Bu ko‘rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Xiva shahar, Bog‘ot, Gurlan, Xiva, Yangibozor (100,0 %) tumanlarida yuqori bo‘lgan. Eng past ulush esa Urganch tumani (64,5 %), Urganch shahri (72,1 %) tumaniga to‘g‘ri keldi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi
Tel.: (62) 227-78-85